

UDC: 341(045)(575.1)

ETNIK OZCHILIKLAR HOLATINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO HUQUQIY UNIVERSAL VA MINTAQAVIY HUJJATLAR TIZIMI RIVOJLANISHI

Xayrullayeva Dilbar Abdusamatovna,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0000-0002-2567-1084
e-mail: dilbar.khayrullaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada etnik ozchiliklar holatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy universal va mintaqaviy hujjatlar tizimi rivojlanishi, bu borada BMT, YUNESKO, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, YXHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi aktlarining o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Izlanish natijasida etnik ozchiliklar holatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy universal hujjatlar tizimida 1992-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan universal hujjat Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya alohida o'ringa egaligi asoslantiriladi. Etnik ozchiliklar holatini bataysil va keng qamrovli tartibga soluvchi xalqaro huquqiy mintaqaviy hujjatlar tizimini YXHT doirasida qabul qilingan milliy ozchilikka mansub shaxslarning ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishtirokiga ko'maklashuvchi Milliy ozchiliklarning ta'limga bo'lgan huquqlari to'g'risidagi Haaga tavsiyalari (1996-yil oktabr), Milliy ozchiliklarning til borasidagi huquqlari to'g'risidagi Oslo tavsiyalari (1998-yil fevral), Ozchiliklar va ularning odil sudlovga ega bo'lishi to'g'risida Grats tavsiyalari (2017-yil oktabr), Ozchiliklar va raqamlı dunyoda OAV Tallin tavsiyalari (2019-yil mart) kabi hujjatlar kirishi asoslantirildi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquqiy universal, mintaqaviy hujjatlar, etnik ozchiliklar, huquqlar, tartibga solish.

РАЗВИТИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ, РЕГУЛИРУЮЩИХ ПОЛОЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕНЬШИНСТВ

Xайруллаева Дилбар Абдусаматовна,
самостоятельный соискатель
Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация. В статье анализируется развитие системы универсальных и региональных международно-правовых актов, регулирующих положение этнических меньшинств, роль и значение в этом отношении актов ООН, ЮНЕСКО, Международной организации труда, ОБСЕ, Содружества Независимых Государств. В результате исследований обосновывается, что в системе универсальных международно-правовых актов, регулирующих положение этнических меньшинств, особое место занимает универсальный документ – Декларация о правах лиц, принадлежащих к национальным или этническим, религиозным и языковым меньшинствам, принятая Генеральной Ассамблей ООН 18 декабря 1992 года. Систему региональных международно-правовых актов, детально и всесторонне регламентирующих положение этнических меньшинств, составляют принятые в рамках ОБСЕ Гаагские рекомендации

«О правах национальных меньшинств на образование, способствующие участию лиц национальных меньшинств в различных сферах общественной жизни» (октябрь 1996 года), Рекомендации Осло «О языковых правах национальных меньшинств» (февраль 1998 года), Грацкие рекомендации по меньшинствам и их правосудию (октябрь 2017 года), Грацкие рекомендации по меньшинствам и СМИ в цифровом мире (март 2019 года).

Ключевые слова: универсальные международно-правовые, региональные документы, этнические меньшинства, права, регулирование.

DEVELOPMENT OF A SYSTEM OF INTERNATIONAL LEGAL UNIVERSAL AND REGIONAL DOCUMENTS REGULATING THE STATE OF ETHNIC MINORITIES

Khayrullaeva Dilbar Abdusamatovna,

Independent Researcher,
University of World Economy and Diplomacy

Abstract. The article analyzes the development of the system of international legal universal and regional documents regulating the status of ethnic minorities, the role, and the importance of acts of the UN, UNESCO, International Labor Organization, OSCE, and Commonwealth of Independent States in this regard. As a result of the research, it has been justified that in the system of international legal universal documents regulating the status of ethnic minorities, the universal document "On the rights of persons belonging to national or ethnic, religious and linguistic minorities" adopted by the UN General Assembly on December 18, 1992, Hague Recommendations on the Rights of National Minorities to Education (October 1996), Oslo Recommendations on the Linguistic Rights of National Minorities (February 1998), Graz Recommendations on Minorities and Their Access to Justice (October 2017), Tallinn Recommendations on Minorities and the Media in a Digital World Access" (March 2019) have a special place.

Keywords: international, legal, universal, regional documents, ethnic minorities, rights, regulation.

Kirish

Bugungi kundagi ozchiliklar holatini tartibga soluvchi xalqaro, huquqiy, universal va mintaqaviy hujjatlar tizimi rivojlanishi BMT tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq. 1945-yilda imzolangan BMTning nizomi "... inson huquqlariga va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar asosiy erkinliklariiga hurmatni rag'batlantirish..."ni maqsad qilib belgiladi [1, 6-b.]. Mazkur davrda BMT tizimi inson huquqlariga nisbatan individual yondashuvga asoslanib, insonning individual huquqlari va asosiy erkinliklari hamda kam-sitmaslik tamoyillarini rivojlantirishga qaratildi.

Material va usullar

O'rganish jarayonida universal va mintaqaviy hujjatlar tizimi rivojlanishi tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Etnik ozchiliklar huquqlarini himoyalash konsepsiysi BMT Bosh Assambleyası tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilin-gan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya-sida rivojlantirilib, inson huquqlari hech bir kansitishlarsiz umum tan olindi, biroq ozchiliklar huquqlari borasida norma kiritilmadi [2, 39–40-b.]. Uning moddalari tahlili ozchiliklarga nisbatan individual yondashuvni hamda ozchilikka mansub shaxslarning madaniy, diniy va ta'lim sohasidagi huquqlarini ifoda etadi. BMTning ozchiliklar taqdirliga befarq qola olmasligi 1948-yil 10-dekabrdagi Ozchiliklar taqdirligi to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyada e'tirof etilib, Inson huquqlari bo'yicha komissiya tomonidan ozchiliklar muammolarini tadqiq etish va komissiya-ga tavsiyalar tayyorlash maqsadida kansitishlarning oldini olish va ozchiliklar himoya-

si bo'yicha maxsus komissiya tashkil etildi [3]. 1970-yillarning o'ttalariga kelib, maxsus komissiya ozchiliklar muammosi borasida yetarli izlanishlar natijasini taqdim etgan bo'lsa-da, BMT organlaridan kutilgan natijaga erishmadi [4, 869-b.].

Deklaratsiyada e'lon qilingan teng huquqlilik va kansitmaslik tamoyillari BMT doirasida qabul qilingan barcha hujjatlarda rivojlantirildi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risidagi konvensiyada milliy, irqiy yoxud diniy guruhlarning ya-shash huquqi mustahkamlanib, ularni butunlay yoki qisman yo'q qilish maqsadida sodir etiladigan faoliyat genotsid deb topildi. Konvensiyada belgilangan huquqlarni amalga oshirish borasida nazorat mexanizmi belgilanib, genotsid jinoyatini sodir etganlik uchun jazoning muqarrarligi mustahkamlandi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan Irqiy kansitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiyada "irqiy kansitish" irqi, terisining rangi, irqiy, milliy yoki etnik kelib chiqishi belgilariga asoslanib, ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki boshqa sohalarda tenglik asnosida inson huquqlari va asosiy erkinliklarni yo'q qilish yoki tan olinishini kansitish, foydalanish yoki amalga oshirish maqsadida yoki oqibatida har qanday farqlash, istisno qilish, chegaralash yoki afzal ko'rish deb ta'rifandi (1-m., 1-q.).

Konvensiya irqiy guruh yoki ularga mansub shaxslarning rivojlanishi va himoyasini ta'minlash maqsadida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda choralar ko'rish (2-m, 2-q), irqiy kansitishning barcha shakllarini taqiqlash va bartaraf etish hamda irqi, terisining rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishidagi farqlardan qat'i nazar har bir insonning qonun oldida teng huquqligini ta'minlash, har bir insonga hech bir farqlarsiz e'tiqod erkinligi, siyosiy hayotda

ishtirok etish, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash borasida a'zo davlatlarga majburiyat yukladi (5-m.).

Tadqiqot natijalari

Ispaniyalik olim A.M. de Zayasning fikriga ko'ra, Ozchiliklar holatini huquqiy tartibga solish borasida umum tan olingen va majburiy bo'lgan qoida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 27-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, "diniy va til jihatdan ozchiliklar mavjud bo'lgan davlatlarda mazkur ozchiliklarga mansub shaxslarning mazkur guruh boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va marosimlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqlarida rad etiliши mumkin emas" [5, 247-b.]

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt a'zo davlatlarga unda e'lon qilingan huquqlar irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilganlik yoki boshqa holatlardan qat'i nazar hech bir kansitishlarsiz amalga oshirilishini kafolatlash majburiyatini yukladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1973-yil 30-noyabrdha qabul qilingan Aparteid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyada aparteid, irqiy segregatsiya, kansitish siyosati va amaliyotining oqibati bo'lmish g'ayri-insoniy xatti-harakatlar xalqaro huquq hamda BMT nizomi tamoyillarini buzuvchi va xalqaro tinchlik va xavfsizlikka jiddiy xavf tug'diruvchi jinoyat sifatida talqin etilib, a'zo davlatlarga aperteid jinoyatini har qanday rag'batlantirishning oldini olish maqsadida zarur choralar ko'rish majburiyati yuklatildi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrdha qabul qilingan Toqatsizlikning barcha shakllariga va din yoki e'tiqod asosida kansitishga barham berish to'g'risi-

dagi deklaratsiya har bir insonning diniy sohadagi erkinliklarini (6-m.), shuningdek, barcha davlatlarning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish, ro'yobga chiqarish va amalga oshirishda din yoki e'tiqod asosida kamsitishning oldini olish va unga barham berish maqsadida samarali choralar ko'rishi lozimligini (4-m.) e'lon qildi [6].

Ozchiliklarning til borasidagi huquqlari bir qator tavsiyanomalarda ko'rib o'tilgan, jumladan, 1976-yil 22-noyabrda qabul qilingan Radio va televide niye sohasida statistikaning xalqaro klassifikatsiyasi to'g'risidagi tavsiyanomada ozchiliklar tillarida uzatiladigan dasturlarni hisobga olish uchun statistik ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish tavsiya etiladi [7, 38-b.].

1976-yil 26-noyabrda qabul qilingan Xalq ommasining madaniy hayotdagi ishtiroki va hissasi to'g'risidagi tavsiyanomada a'zo davlatlarga milliy ozchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda ular madaniyati tengligini kafolatlash, uni kamsitishlarsiz rivojlantirish, shuningdek, ozchiliklar madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish huquqini kafolatlagan holda ular yashayotgan davlatlar madaniy hayotini boyitishda samarali ishtirokini ta'minlash tavsiya etildi. 1978-yil 27-noyabrda qabul qilingan Irq va irqi xurofotlar to'g'risidagi deklaratsiya insonlarning o'z qadr-qimmati hamda huquqlar borasida teng bo'lib tug'ilishini, barcha insonlar va insonlar guruhlarining bir-biridan farqlanish, o'zlarini shu xislatda ko'rish va shunday hisoblanish huquqlariga ega ekanligini (1-m.), irqi, terisining rangi yoki milliy kelib chiqishi yoxud diniy toqatsizlik belgilariga asoslangan turli farqlashlar, istisnolar yoki afzal ko'rishlar inson huquqlari hurmatini kafolatlovchi odil xalqaro tartibotning talablariga muvofiq kelmasligini e'lon qildi (3-m.). 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida a'zo davlatlarning e'tibori inson huquqlari va asosiy erkinliklarini irqi, jinsiy, til, milliy, diniy mansubligidan qat'i nazar barcha uchun rivojlantirish,

hurmatini ta'minlash hamda murosasizlik ko'rinishlariga qarshi kurashish majburiyatiga qaratildi. Ta'kidlash joizki, ozchiliklarning mavjudligi, yashash huquqi hamda o'z huquqlarida rad etilishi mumkin emasligi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risidagi konvensiya hamda 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda belgilandi [8, 793–803-b.].

Tenglik va kamsitmaslik tamoyillariga asoslangan xalqaro huquqiy hujjatlar ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini ta'minlash va himoyalashga yetarli deb hisoblangan bo'lsa-da, 90-yillarga kelib, ozchiliklar o'ziga xosligini saqlab qolish va alohida huquqlarini mustahkamlovchi hujjatlar qabul qilish zarurati tug'ildi.

1992-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan dastlabki universal hujjat sobiq maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilingan bo'lsa-da, ozchiliklar himoyasi borasida yuridik majburlov kuchiga ega universal hujjat ishlab chiqilmadi. BMTning maqsadlaridan biri bo'lgan hech bir kamsitishlarsiz inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirishga erishishda barcha a'zo davlatlar BMT bilan hamkorlikda va mustaqil faoliyat yuritish majburiyatini oldi. O'z navbatida mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham teng huquqlik va kamsitmaslik tamoyillariga asoslangan huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 1969-yil 22-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi, 1981-yil 26-iyunda qabul qilingan Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasi, 1988-yil 15-fevralda qabul qilingan Individ va xalqlarning inson huquqlari Osiyo-Tinch okean deklaratsiyasi, 1988-yil 3-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari va xalqlar huquqlari to'g'risi-

dagi Tunis deklaratsiyasi inson huquqlari ning kamsitishlarsiz hurmat qilinishi va teng huquqligini belgiladi [9, 867–887, 887–899, 857–867].

Fransiyalik Fernand De Varennes asosli ta'kidlaganidek, "Ozchiliklar huquqlarini xalqaro darajada mustahkamagan dastlabki universal hujjat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 47/135-sonli rezolyutsiya va 1992-yil 18-dekabrda qabul qilingan Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya [10, 158–161-b.] hisoblanadi" [11].

Deklaratsiya ozchiliklarga mansub shaxslarning erkin va aralashuvlarsiz yoki qanday shaklda bo'lmasin, kamsitishlarsiz o'z madaniyati boyliklaridan foydalanish kabi masalalarini qamrab oladi.

1993-yil 25-iyunda Venada bo'lib o'tgan BMTning Inson huquqlari bo'yicha umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi BMTning yuqorida keltirilgan deklaratsiyasiga muvofiq davlatlar va jahon hamjamiyatini milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishga da'vat etib, ozchiliklarning deklaratsiyada e'lon qilingan huquqlarini va davlatlarning majburiyatlarini yana bir bor tasdiqladi [12, 78–93-b.].

2001-yil 2-noyabrda qabul qilingan YUNESKOning Madaniy turli-tumanlik to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi muqaddimasida madaniyatlarning turli-tumanligini hurmat qilish, ishonch va o'zaro tus-hunish sharoitida bag'rikenglik, muloqot va hamkorlik tinchlik va xalqaro xavfsizlikning eng yaxshi garovi ekanligi tasdiqlanib, deklaratsiyaning 4-moddasi madaniy turli-tumanlikning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, ayniqsa, milliy ozchiliklarga mansub shaxslar va tub xalqlarning huquqlarini hurmat qilishni nazarda tutishini e'lon qildi (4-m.) [13, 226–227-b.].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti bosh konferensiyasi tomonidan 1964-yil 9-iyulda qabul

qilingan Bandlik sohasida siyosat to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq, bandlik sohasida siyosat irqi, terisining rangi, jinsi, dini, siyosiy qarashlari, ajnabiy va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir mehnatkashning u yaroqli bo'lgan ishni bajarish uchun tayyorgarlik o'tash hamda o'z ko'nikma va qobiliyatini qo'llash uchun bandlikni tanlash erkinligi hamda eng keng imkoniyatlar mavjud bo'lishini ta'minlash maqsadiga ega (1-m., 2-q., "s" b.) [14, 368–369-b.]. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1989-yil 7-iyunda qabul qilingan Mustaqil davlatlarda tub xalqlar va qabilaviy hayot tarzini olib boruvchi xalqlar to'g'risidagi 169-sonli konvensiya a'zo davlatlarga mazkur xalqlarga mansub shaxslarning milliy qonunchilikka ko'ra davlatning qolgan aholisiga taqdim etiladigan huquq va imkoniyatlardan tenglik asosida foydalanishi ni ta'minlash majburiyatini yukladi [15, 118–130-b.].

Amerikalik olim Hurst Hannum e'tirof etganidek, teng huquqlilik va kamsitmaslik tamoyillari mintaqaviy huquqiy hujjatlarining ham asosiga aylandi. Inson huquqlari va erkinliklarining irqi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug'ilganlik va boshqa ijtimoiy sharoitlarga ko'ra kamsitishlarsiz hurmat qilinishi majburiyati 1969-yil 22-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasida mustahkamlandi (1-m.) [16, 55–56-b.].

Yevropa mintaqasida bu borada 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, 2000-yil 7-dekabrda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlar to'g'risidagi xartiyasi shular jumlasidan. Ayniqsa, ozchiliklar himoyasi borasida xalqaro huquq ijodkorligi jarayoni jadallahdi.

50-yillardan boshlab Yevropa Kengashi doirasida va rahbarligida ozchiliklar huquqlari himoyasi to'g'risida Yevropa uchun mo'ljallangan maxsus ko'p tomonlama va yuridik majburlov xarakteriga ega shartnomalarini qilingan.

ni ishlab chiqish ishlari olib borilib, 1995-yil 1-fevralda kengashning 21 nafar a'zo davlatlari Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi konvensiyani imzoladilar [17, 111-b.].

Ozchiliklar huquqlarini ta'minlash choralarini Yevropa Kengashining 1992-yil 5-noyabrda qabul qilingan Mintaqaviy tillar va ozchiliklar tillari to'g'risida Yevropa xartiyasida ham ko'rib chiqildi [18, 594-b.].

Yevropa Kengashi doirasida 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 14-moddasida unda tan olingan huquq va erkinliklardan foydalanish jinsi, irqi, terisining rangi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, milliy ozchilikka mansubligi, mulkiy ahvoli, tug'ilganligi yoki boshqa belgilarga ko'ra kamsitilishlarsiz ta'minlanishi lozimligi belgilangan bo'lsa-da, milliy ozchiliklar huquqlarini belgilovchi normani o'z ichiga olmagan.

Milliy ozchiliklar huquqiy holatini tartibga solishga samarali urinishlar Yevropa Kengashi tomonidan ham amalga oshirilgan bo'lib, 1992-yil 5-noyabrda qabul qilingan Mintaqaviy tillar va ozchiliklar tillari to'g'risidagi Yevropa xartiyasi mintaqaviy tillar va ozchiliklar tillarining tan olinishi va ulardan ijtimoiy hayotda (xususan, ta'lif, odil sudlov, hukumatning ma'muriy organlari va davlat xizmati, ommaviy axborot vositalari, madaniy faoliyat sohasida) foydalanish choralarini belgiladi [19, 711-724-b.]. Yevropa Kengashi tomonidan 1995-yil 1-fevralda Strasburgda (Fransiya) qabul qilingan va 1998-yil fevralda kuchga kirgan Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi konvensiya ozchiliklar himoyasi borasida mintaqaviy darajada qabul qilingan maxsus hujjat bo'lib, ozchiliklarning jamoaviy emas, balki an'anaviy bo'lgan individual huquqlarining tan olingenini, shuningdek, mazkur huquqlar ularni ta'minlash borasida a'zo davlatlarning "muayyan shartlar asosida" choralar ko'rish majburiyati kontekstida ifoda etilganini belgilaydi.

L.N. Shestakovning fikricha, Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi konvensiya asosan davlat ichki qonunchiligidagi rivojlantirilishi lozim bo'lgan dasturiy xarakterdagi qoidalardan iborat [20, 95-99-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Ozchiliklar himoyasi va ular huquqlarini ta'minlash choralarini ko'pgina nufuzli mintaqaviy tashkilotlar, xususan, Yevropa-da xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (1994-yildan YXHT) deyarli barcha konfrensiyalari va hujjatlarida ko'rila boshlandi. 1975-yil 1-avgustda Helsinki shahrida imzolangan YXHTning yakuniy hujjati hududida milliy ozchiliklar mavjud bo'lgan a'zo davlatlarning mazkur ozchilikka mansub shaxslarning qonun oldida tenglik huquqini hurmat qilish, inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan haqqoniy foydalanishning to'la imkoniyatlarini taqdim etish hamda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish majburiyatini belgiladi [21, 754-b.].

Mazkur majburiyat 1980-yil 6-sentabrda imzolangan YXHTning Madrid uchrashuvi yakuniy hujjatida yana bir bor ta'kidlandi [22, 760-b.]. 1986-yil 15-yanvarda imzolangan YXHTning Vena uchrashuvi yakuniy hujjati milliy ozchiliklarning jamoaviy huquqlari tan olingan dastlabki xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, ularning hamjamiyat sifatida mavjudligini ta'minlovchi omillar belgilandi. Shu jumladan, milliy ozchiliklar vakili sifatida so'zlashish erkinligi, etnik, madaniy, til va diniy o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirish, madaniy jamiyatlar, ma'rifiy va diniy tashkilotlar tashkil etish borasida individual huquqlari ilk bor tan olindi. A'zo davlatlarning esa ular hududida milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning inson huquqlari va asosiy erkinliklari himoyasini ta'minlash borasida qonunchilik, ma'muriy, huquqiy va boshqa zarur choralar ko'rish, teng huquqliliginu hurmat qilish, etnik, madaniy, til va diniy o'ziga xosligini himoya qilish va rag'batlantirish, mazkur shaxslarga nisbatan kamsitishlardan tiyilib turish kabi majburiyatlari mustahkamlandi [23, 764-768-b.].

Milliy ozchiliklar huquqiy holati 1990-yil 29-iyunda imzolangan YXHTning insoniylik mezoni bo'yicha konferensiyasi Kopengagen kengashi hujjatining IV bo'limida mustahkamlangan bo'lib, umum tan olingen inson huquqlarning bir qismi sifatida ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlarini hurmat qilish a'zo davlatlarda tinchlik,adolat, barqarorlik va demokratiyaning muhim omili ekanligi tasdiqlandi. Ozchiliklar huquqlarini ta'minlash borasida a'zo davlatlarning o'z hududida milliy ozchiliklarning etnik, madaniy, til va diniy o'ziga xosligini himoya qilish va mazkur o'ziga xoslikni rag'batlantirish borasida sharoit yaratish, milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning davlat ishlarida samarali ishtiroki huquqini hurmat qilish majburiyatlari belgilandi [24, 779–783-b.]. A'zo davlatlarning milliy ozchiliklar holatini bundan keyin ham yaxshilash majburiyati 1990-yil 21-noyabrda Parijda imzolangan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida mustahkamlangan bo'lib, Kopengagen hujjati prinsiplari yana bir bor tasdiqlandi [25, 785–786-b.]. 1991-yil 1–19-iyul kunlari Jenevada bo'lib o'tgan milliy ozchiliklar masalalari borasida ekspertlar kengashi hisobotida mazkur shaxslarga nisbatan xalqaro majburiyatlarga rioya qilish faqatgina davlatlarning ichki ishi emasligi belgilanib, ozchiliklar holatining yaxshilanishiga ko'maklashuvchi demokratik amaliyot umumlashtirildi. Ta'kidlash joizki, mazkur hujjat milliy ozchiliklarga mansub shaxslarning til va ta'lim borasida huquqlarini o'z ichiga olmagan bo'lib, ular huquqlari himoyasi mexanizmi aniq belgilangan [26, 359–367, 211–218-b.].

YXHTning insoniylik mezoni konferensiyasi Moskva kengashi hujjati (1991-y. 3-oktabr), yuqori darajadagi Helsinki uchrashushi deklaratsiyasi (1992-y. 10-iyul) va Budapesht sammiti qarori (1994-y. 6-dekabr)da a'zo davlatlar YXHTning barcha hujjatlarida ifodalangan milliy ozchiliklar muammolari va ularga mansub shaxslar huquqlariga tegishli qoida va majburiyatlarni tasdiqladilar.

2004-yil 9-iyulda qabul qilingan YXHT Parliament assambleyasida Edinburg deklaratsiyasida a'zo davlatlarga milliy ozchiliklar uchun ta'lim dasturlarini ona tillarida ham qo'llab-quvvatlash, milliy o'quv dasturlariga turli din va madaniyatlarni o'rganishni kiritish tavsiya etilib, maktab ma'muriyatlari, politsiya va mahalliy boshqaruв organlari kabi tegishli muassasalarda milliy ozchiliklarning teng taqdim etilishini ta'minlash taklif etildi [27].

Shuningdek, YXHT doirasida milliy ozchilikka mansub shaxslarning ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishtirokiga ko'maklashuvchi tavsiyalar ishlab chiqilib, unda ko'p sonli munozaralar natijalari, shuningdek, shu sohadagi ekspertlar nuqtayi nazari hisobga olingen, xususan, Milliy ozchiliklarning ta'limga bo'lgan huquqlari to'g'risidagi Haaga tavsiyalari (1996-yil oktabr), Milliy ozchiliklarning til borasidagi huquqlari to'g'risidagi Oslo tavsiyalari (1998 yil fevral), Ommaviy-siyosiy hayotda milliy ozchiliklarning samarali ishtiroki to'g'risidagi Lund tavsiyalari (1999-yil sentabr), Saylov jaryonida milliy ozchiliklarning ishtiroki ga ko'maklashuvchi Varshava tavsiyalari (2001-yil yanvar), Teleradio eshittirishlarda ozchiliklar tillaridan foydalanish to'g'risidagi tavsiyalari (2003-yil oktabr), Ko'p millatli jamiyatda politsiya faoliyati masalalari borasidagi tavsiyalari (2006-yil fevral), Davlatlararo munosabatlarda milliy ozchiliklar to'g'risidagi Boltsan tavsiyalari (2008-yil iyun), Turli hamjamiyatlarni integratsiya etish Lyublyana tavsiyalari (2012-yil mart), Ozchiliklar va ularning odil sudlovga ega bo'lishi to'g'risida Grats tavsiyalari (2017-yil oktabr), Ozchiliklar va raqamli dunyoda OAV Tallin tavsiyalari (2019-yil mart) kabi bir qator hujjatlar shular jumlasidan [28].

Teng huquqlilik va kamsitmaslik tamoyillari MDH doirasida qabul qilingan Olmaota deklaratsiyasi (1991-yil 21-dekabr) [29], MDH doirasida hamkorlik tamoyillariga amal qilish to'g'risidagi deklaratsiya (1992-yil 14-fevral), MDHning inson hu-

quqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi konvensiyasi hujjatlarida ham ifodalangan (1995-yil 26-may) [30, 857–867-b.]. Ta'kidlash joizki, MDH doirasida 1992-yildan boshlab, ozchiliklar huquqlari himoyasiga e'tibor kuchayishi Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan bog'liq. Ozchiliklar himoyasiga bevosita yoki bilvosita taalluqli bo'lgan bir necha huquqiy hujjat, xususan, Chiqarib yuborilgan shaxslar, milliy ozchiliklar va xalqlar huquqlarini tiklash bilan bog'liq masalalar bo'yicha kelishuv (1992-yil 9-oktabr), Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiya (1994-yil 21-oktabr) qabul qilindi [31, 852–857-b.].

Bundan tashqari, davlatlararo munosabatlarda ozchiliklar huquqlari masalalari ikki va ko'p tomonlama shartnomalar hamda milliy qonunchilik hujjatlari predmetiga aylandi. Rossiyalik tadqiqotchi S.S. Yurev asosli ta'kidlaganidek, 1994-yil 21-oktabrda Minskda qabul qilingan Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiya milliy ozchiliklarga mansub shaxslar tushunchasiga ta'rif keltirilgan dastlabki xalqaro huquqiy hujjatdir. Milliy ozchiliklarga mansublik manfaatdor shaxsning individual tanloviga bog'liq ekanligi va bu tanlov mazkur shaxs uchun hech qanday salbiy oqibatlar tug'dirmasligi, shuningdek, a'zo davlatlar tomonidan mazkur shaxslarning inson huquqlari borasida umum tanoligan xalqaro andozalar va milliy qonunchilikka binoan fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquq va erkinliklarning kafolatlanishi belgilandi [32, 334-b.]. Bu borada ta'kidlash kerakki, O'zbekiston mazkur konvensiyaga a'zo emas. O'yaymizki, O'zbekistonning MDHning Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilishi mintaqada doirasida ozchiliklar huquqlarini ta'minlash tizimini mustahkamlashga hamda milliy darajada ularning manfaatlarini yanada kengroq ta'minlashga ko'maklashadi.

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan xalqaro huquqiy hujjatlar tahliliga ko'ra:

1. Etnik ozchiliklar huquqlari, dastlab, inson huquqlari umumiyligi tizimida BMT nizomida mustahkamlangan xalqlarning teng huquqliligi va kansitmaslik tamoyillari kontekstida universal va mintaqaviy huquqiy hujjatlarda umumiyligi jihatdan ta'minlangan bo'lib, ozchiliklar jamoa sifatida emas, balki "ozchiliklarga mansub shaxslar" sifatida qabul qilinib, individual huquqlari mustahkamlandi.

2. O'tgan asrning 80–90-yillardan boshlab, ozchiliklar huquqlari maxsus ravishda universal va mintaqaviy huquqiy hujjatlarda hamda ikki va ko'p tomonlama shartnomalar da mustahkamlana boshladи. Mazkur huquqiy hujjatlarda ozchiliklar jamoa sifatida qabul qilinib, ularning jamoaviy huquqlari mustahkamlana boshladи.

3. Bugungi kunda ozchiliklar huquqlari universal darajada BMT tizimida mutahkamlanib, ozchiliklar huquqiy holati va maqomini belgilash, ularning asosiy huquqlarini kafoflatlash, turli ko'rinishlarda kansitmaslikka yo'l qo'ymaslik, himoyalash mexanizmini yaratish kabi masalalarga qaratilgan.

4. BMT tizimida ozchiliklar huquqiy holatini belgilash va himoyalash mexanizmi inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan konvensiyaviy mexanizmlar hamda Xalqaro Mehnat Tashkiloti va YUNESKO doirasida shakllangan vositalar orqali amalga oshiriladi. Mazkur tizimning asosini BMTning 1992-yil 18-dekabrda qabul qilingan Milliy yoki etnik, diniy va tilga oid ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratсиya tashkil etadi.

5. Bugungi kunda mintaqaviy darajada ozchiliklar huquqiy holatini belgilash va himoyalash mexanizmlari Yevropa Kengashi, YXHT, MDH, Afrika Kengashi doirasida tashkil etilgan. Ularni 1995-yil 1-fevraldagи Milliy ozchiliklar himoyasi to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi, 1994-yil 21-oktabrdagi Milliy

ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi Minsk konvensiyasi hamda YXHT doirasida qabul qilingan siyosiy va tavsiyaviy ahamiyatga ega 10 dan ortiq tavsiyalar tashkil etadi.

6. BMT doirasida ozchiliklar huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmini 1965-yilda joriy etilgan Irqiy kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita hamda 2005-yilda joriy etilgan Ozchiliklar masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi ta'minlaydi.

7. Yevropa Kengashi doirasida ozchiliklar huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmini Yevropa Vazirlar Mahkamasining maslahat qo'mitasi tashkil etadi.

8. YXHT doirasida ozchiliklar huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmini 1992-yilda joriy etilgan ozchiliklar ishlari bo'yicha oliy komissar ta'minlaydi.

9. Ozchiliklar kamsitilishining oldini olish maqsadida YXHTning 2017-yilgi Ozchiliklar va ularning odil sudlovga ega bo'lishi to'g'risida Grats tavsiyalaridan kelib chiqib, "Sudlar to'g'risida"gi qonunning sudyalar deb nomlangan 58-moddasi quyidagi tahrirdagi 5-qism bilan to'ldirilishi taklif etiladi: "Sudlar tarkibi aholining xilma-xilligini aks ettirishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak".

Shu mazmundagi normalar "Prokuratura to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi,

"Milliy gvardiya to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlarga kiritilishi taklif etiladi.

10. YXHTning 2019-yilgi Ozchiliklar va raqamli dunyoda OAV Tallin tavsiyalarining (2019-y. mart) 22-bandiga asosan, "Davllar mintaqaviy yoki mahalliy darajada, shu jumladan, ozchiliklar yashaydigan geografik hududlarda va/yoki ularning tillarida turli xil ommaviy axborot vositalarining mustaqil va barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan aniq qonunchilik va boshqa qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rishlari kerak". Ammo mazkur masala milliy qonunchilik darajasida o'z aksini topmagan. Shundan kelib chiqib, 2007-yil 15-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunning ommaviy axborot vositalarining erkinligi deb nomlangan 5-moddasini quyidagi 4-qism bilan to'ldirish taklif etiladi: "Ommaviy axborot vositalari mintaqaviy yoki mahalliy darajada, shu jumladan, ozchiliklar yashaydigan jug'rofiv hududlarda va/yoki ularning tillarida turli xil ommaviy axborot vositalarining mustaqil va barqaror ishlashini qo'llab-quvvatlash va ta'minlashga qaratilgan choralarini ko'rishga intilishadi".

Bundan tashqari, O'zbekistonning MDHning Milliy ozchiliklarga mansub shaxslar huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishi kun tartibida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

REFERENCES

1. UN Charter and international judicial statute. 2002, 4 p.
2. Universal Declaration of Human Rights. International human rights instruments. Moscow, Norma, 1999, pp. 39–40.
3. UN Doc. 217 C (III), 10 Dec. 1948.
4. Humphrey J.P. The United Nations Sub-Commission on the Prevention of Discrimination and Protection of Minorities. AJIL, 1988, p. 869.
5. De Zayas A.M. The international judicial protection of peoples and minorities. Eds. C. Brolmann et al. Peoples and minorities in international law. Dordrecht, Martinus Nijhoff Publ., 1993, p. 247.

6. Leading Principles on the subject of law of religious churches and churches that adhere to certain beliefs. Ed. A. Saidov. Trans. G. Mirzo. Warsaw, Poligrfaus Jacek Adamiak, 2019, p. 71.
7. Definition and Classification of Minorities. Memorandum Submitted by the Secretary General. UN Doc. E/CN.4/Sub.2/85. 27 Dec. 1949, p. 38.
8. International Covenant on Civil and Political Rights. Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide. Comp. Yu.M. Kolosov, E.S. Krivchikova. Current international law. Moscow, 2002, pp. 793–803.
9. Current international law. Comp. Yu.M. Kolosov, E.S. Krivchikov. Moscow, Publ. House of the Moscow Independent Institute of International Law, 1997, vol. 2, pp.190–201.
10. International acts on human rights. Comp. V.A. Kartashkin, E.A. Lukasheva. 2nd ed., supplement. Moscow, Norma, 2002, pp. 857–899,
11. Charter of Fundamental Rights of the European Union. Charter of the European Union on Fundamental Rights (commentary). Moscow, Jurisprudence, 2001, pp. 158–161.
12. Official Documents System of the United Nations. Available at: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N93/076/57/IMG/N9307657.pdf?OpenElement/>.
13. De Varennes F. Special Rapporteur on minority issues. Available at: <https://www.ohchr.org/en/special-procedures/sr-minority-issues/fernand-de-varennes/>.
14. Vienna Declaration and Programme of Action. International human rights instruments. Moscow, Norma, 2002, pp. 78–93.
15. YuNESKOning Madaniy xilma-xillik umumjahon deklaratsiyasi [UNESCO's Universal Declaration on Cultural Diversity]. Ed. L. Saidova. Tashkent, Адолат Publ., 2004, pp. 226–227.
16. Convention on Employment Policy. International human rights instruments. Moscow, Norma, 2002, pp. 368–369.
17. ILO Convention No. 169 on Indigenous and Tribal Peoples in Independent Countries. International human rights instruments. Moscow, Norma, 2002, pp. 118–130.
18. Hurst Hannum Autonomy, sovereignty and self-determination. The accommodation of conflicting rights. Philadelphia, University of Pennsylvania Press, 1990, pp. 55–56.
19. Tuzmukhamedov R.A. National minorities under the protection of international law. *State and Law*, 1996, no. 2. p. 111.
20. Capotorti F. Study on the rights of persons belonging to ethnic, religious and linguistic minorities. UN Doc. E/CN.4/Sub.2/384/Rev.1.
21. Gerber. Kulturautonomie als Eigenart minderheitenrechtlicher Ordnung und ihre Verwirklichung nach der estnischen Verfassung [Cultural autonomy as a peculiarity of minority legal order and its implementation according to the Estonian constitution]. Berlin, 1926.
22. European Charter on Regional and Minority Languages. International Acts on Human Rights. Sat. doc. Moscow, Norma, 2002, pp. 711–724.
23. Bulletin of the Moscow University. Ser. 11, Law, 1996, no. 6. pp. 95–99.
24. Final Act of the Conference on Security and Cooperation in Europe of August 1, 1975. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, p. 754.
25. The final document of the Madrid meeting of 1980 of representatives of the CSCE participating States. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, p. 760.
26. Final Document of the 1986 Vienna Meeting of Representatives of the Participating States Final Act of the Conference on Security and Cooperation in Europe. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, pp. 764–768.
27. Document of the Copenhagen Meeting of the CSCE Conference on the Human Dimension of June 29, 1990. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, pp. 779–783.
28. The Charter of Paris for a New Europe (Final Document of the Conference on Security and Cooperation in Europe, held in Paris) of November 21, 1990. International Acts on Human Rights. Moscow, Norma, 2002, pp. 785–786.

29. Report of the CSCE Expert Meeting on National Minorities in Geneva on July 19, 1991. International cooperation in the field of human rights. Report of the CSCE Expert Meeting on National Minorities in Geneva on July 19, 1991. International cooperation in the field of human rights: Documents and Materials. Moscow, 1993, pp. 359–367.
30. The Edinburgh Declaration of the OSCE Parliamentary Assembly and the Assembly Resolutions adopted at the ninth Annual Session on July 9, 2004.
31. Li X. Protection and realization of the rights of ethnic minorities in the State national policy of the People's Republic of China. Abstract of PhD thesis. Kazan, Kazan Federal University, 25 p.
32. Alma-Ata Declaration of the CIS of December 21, 1991.
33. Pallek M. Minderheiten in Deutschland – Der Versuch einer Juristischen Begriffsbestimmung [Minorities in Germany - An attempt at a legal definition]. Public law archive. Mohr Siebeck, 2000, vol. 125, p. 594.
34. Lamey B. Die Minderheiten in Lettland [Minorities in Latvia]. Riga-Berlin, 1931. Noel-Buxton, National minorities to-day, London, 1931.
35. Widmer P. Le defi des minorites nationales en Europe. Paris, La Trimestre du Monde, 1992, pp. 211–218.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

6 / 2022

BOSH MUHARRIR:
Xodjayev Baxshillo Kamolovich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ikrom Ergashev
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov
Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova
Musahih: M. Patillaryeva
Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

veb-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 25.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 20,92 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 169.
TDYU tipografiyasida chop etildi.